

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIGA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDAGI MUAMMOLAR
VA CHEKLOVLAR**

Tilaganboyev Javohir Ixtiyor o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ingliz huquqi va Yevropa Ittifoqi huquqi
shu'basi o'qituvchisi
tilaganboevjavokhir@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonidagi mavjud to'siqlar va tizimli cheklovlar atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotning bosh maqsadi – raqamli transformatsiyaning to'liq ishlashiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlashdir. Ishda asosiy e'tibor texnik infratuzilma (server quvvatlari, internet barqarorligi)dagi uzilishlar, soliq to'lovchilarning raqamli savodxonlik darajasi yetishmasligi hamda malakali kadrlar taqchilligi muammolariga qaratilgan. Shuningdek, sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning tez o'zgaruvchanligi, axborot xavfsizligi va kiberxavflar, hamda idoralararo ma'lumotlar integratsiyasidagi nomutanosibliklar tanqidiy o'rganilgan. Tahlillar asosida “Soliqchi – ko'makchi” tamoyilini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun texnik modernizatsiya, huquqiy takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyatchiligi, raqamli iqtisodiyot, E-fiskal, risk-analiz, raqamli savodxonlik, texnik infratuzilma, yashirin iqtisodiyot.

**ПРОБЛЕМЫ И ОГРАНИЧЕНИЯ ПРИ ВНЕДРЕНИИ ЦИФРОВЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В НАЛОГОВОЕ АДМИНИСТРИРОВАНИЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Тилаганбоев Жавохир

Ташкентский государственный юридический университет

Преподаватель сектора

английского права и права Европейского Союза

tilaganboevjavokhir@gmail.com

***Аннотация:** в данном тезисе анализируются текущее состояние процесса цифровизации налогового администрирования в Республике Узбекистан, достигнутые результаты и актуальные проблемы, возникающие при полноценном внедрении данной системы. В ходе исследования изучены барьеры, связанные с технической инфраструктурой налоговых органов, стабильностью информационных систем и уровнем цифровой грамотности налогоплательщиков. Также освещено негативное влияние частых изменений нормативно-правовой базы, вопросов информационной безопасности и диспропорций в межведомственной интеграции на цифровую трансформацию. В заключении разработаны научно-практические предложения по устранению выявленных проблем и повышению эффективности налогового администрирования.*

***Ключевые слова:** налоговое администрирование, цифровая экономика, E-fiskal, риск-анализ, цифровая грамотность, техническая инфраструктура, информационная безопасность*

**PROBLEMS AND RESTRICTIONS IN THE IMPLEMENTATION OF
DIGITAL TECHNOLOGIES IN TAX ADMINISTRATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Javokhir Tilaganboev

Tashkent State University of Law

Lecturer, Department of English Law and European Union Law

tilaganboevjavokhir@gmail.com

Abstract: *this thesis analyzes the current state of digitalization of tax administration in the Republic of Uzbekistan, the achievements gained, and the urgent problems arising in the full implementation of this system. The study examines barriers related to the technical infrastructure of tax authorities, the stability of information systems, and the digital literacy of taxpayers. Furthermore, the negative impact of the rapidly changing regulatory framework, information security issues, and inconsistencies in inter-agency integration on digital transformation is highlighted. In conclusion, scientific and practical proposals have been developed to address the identified problems and increase the efficiency of tax administration.*

Keywords: *tax administration, digital economy, E-fiscal, risk analysis, digital literacy, technical infrastructure, information security.*

Kirish

XXI asrda raqamli texnologiyalar davlat boshqaruvi tizimining barcha sohalariga, jumladan soliq ma'muriyatchiligiga ham chuqur kirib bormoqda. Global miqyosda davlatlar soliq tizimlarini raqamlashtirish orqali soliqlarni undirish samaradorligini oshirish, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarni soddalashtirish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish hamda davlat byudjeti barqarorligini ta'minlashga intilmoqda. Raqamli soliq ma'muriyatchiligi zamonaviy fiskal boshqaruvning ajralmas elementi sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda soliq tizimini tubdan isloh qilish jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Elektron soliq hisobotlari, soliq to'lovchining shaxsiy kabineti, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, integratsiyalashgan

axborot tizimlari kabi mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etildi. Ushbu islohotlar soliq ma'muriyatchiligining ochiqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, soliq tizimini raqamlashtirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat texnologik, balki huquqiy, institutsional, tashkiliy va ijtimoiy muammolar bilan ham uzviy bog'liqdir. Mazkur tezisning maqsadi O'zbekiston Respublikasida soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etishda yuzaga kelayotgan asosiy muammolar va cheklovlarni ilmiy tahlil qilish, ularni xalqaro tajriba bilan solishtirish hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirishning nazariy-huquqiy asoslari

Raqamli soliq ma'muriyatchiligi tushunchasi. Raqamli soliq ma'muriyatchiligi soliq organlari faoliyatini modernizatsiya qilish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) faol va tizimli qo'llash orqali soliqlarni hisoblash, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqlarni undirish va soliq to'lovchilar bilan interaktiv xizmatlarni ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish deb talqin etiladi. Bu kontseptsiya soliq ma'muriyatchiligi faoliyatini "ma'lumotga asoslangan, oldindan prognoz qiluvchi va integratsiyalashgan tizim" darajasiga olib chiqishni ko'zda tutadi, ya'ni davlat soliq organining barcha jarayonlari raqamli ma'lumotlar tizimi orqali uzviy boshqariladi. OECDning yirik ekspertlar guruhi ta'kidlaganidek, soliqlarni raqamlashtirish jarayoni soliq ma'muriyatchiligini an'anaviy operatsion boshqaruvdan raqamli transformatsiyaga olib o'tadi, bu esa soliqlar bo'yicha xizmatlarni soddalashtirish, soliq to'lovchilarga onlayn xizmatlar orqali masofaviy

xizmatlar ko'rsatish va soliq to'lovchilarning real vaqt rejimidagi ma'lumot bazasidan foydalanishni yanada kengaytirish imkonini yaratadi.

Raqamli soliq ma'muriyatchiligi kontseptsiyasiga quyidagi elementlarni kirgizishimiz mumkin:

- Elektron deklaratsiyalar va soliq hisobotlari – soliq to'lovchilarning ma'lumotlarni onlayn yuborishi va ularning avtomatik qayta ishlanishi nazarda tutiladi;
- Soliq ma'lumotlarining yagona va integratsiyalashgan bazalari – barcha soliqlar bo'yicha ma'lumotlar yagona platformada saqlanadi;
- Real vaqt rejimida monitoring va tahlil tizimi – soliq organlari soliq faoliyatini reaktiv emas, balki real vaqt rejimida kuzatadi;
- Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) analitikasi – soliq xatolarini aniqlash, risklar tahlili va prognozlash uchun texnologiyalar qo'llanadi;
- Soliq to'lovchilar bilan masofaviy interaktiv aloqa – onlayn konsalting, chat-botlar va elektron xizmatlar orqali tezkor muloqot.

Bu yondashuv soliq ma'muriyatchiligi tizimini nafaqat jarayon darajasida avtomatlashtiradi, balki raqamli iqtisodiyot kontekstida soliq tizimini samarali boshqarish mexanizmini ham shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy asoslar.

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish jarayoni normativ-huquqiy asos bilan mustahkamlangan bo'lib, u asosan quyidagi hujjatlar orqali amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;

- “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmon;
- “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6098-sonli Farmon;
- “Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5252-sonli Qaror;
- “Soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi VMQ-489-sonli Qaror;
- “Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi VMQ-1-sonli Qaror;
- “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-595-sonli Qaror.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bu sohadagi eng asosiy hujjatdir. 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi yordamida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning huquqiy poydevorini yaratilib, unda shaxsiy kabinet, elektron hujjat almashinuvi, risk-analiz tizimlari va soliq nazoratining boshqa zamonaviy shakllari to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilab qo‘yilgan. PF-6079-sonli Farmon esa soliq organlari ma‘lumotlar bazasini boshqa davlat idoralari bilan integratsiya qilish va “E-fiskal” kabi yirik loyihalarni amalga oshirishni strategik vazifa sifatida belgiladi. PF-6098-sonli va Farmon hamda PQ-5252-sonli qarorlar soliq ma‘muriyatchiligida inson omilini kamaytirish, korrupsiya va yashirin

iqtisodiyotga qarshi kurashishda raqamli vositalardan foydalanishni kuchaytirish, soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirish va ortiqcha ma'muriy yuklamalarni olib tashlashga qaratilgan. Shuningdek, davlat soliq qo'mitasi raqamli xizmatlar bo'yicha strategiya ishlab chiqib, amaliyotga joriy etib bormoqda. Bu strategiya soliq organlarining elektron xizmatlar portali, soliq to'lovchilarning onlayn kabineti va shu kabi raqamli vositalarni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Biroq, normativ-huquqiy baza asosan texnik mexanizmlarni joriy etish bilan cheklanmoqda. Hozirgi qonunchilikda ma'lumotlar xavfsizligi, raqamli identifikatsiya, algoritmik soliq nazorati va avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish mexanizmlari kabi masalalar aniq tartibga solinmagan. Bu raqamli soliq ma'muriyatchiligida huquqiy bo'shliqlarni keltirib chiqaradi, chunki texnologik yechimlar va ularning natijalari bo'yicha mas'uliyat, shaffoflik va soliq to'lovchi huquqlarini himoya qilish mexanizmlari yetarli darajada belgilangan emas.

O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirishning amaliy holati

Joriy etilgan raqamli yechimlar

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning o'zagini soliq ma'muriyatchiligini to'liq raqamlashtirish tashkil etadi. Bu jarayon shunchaki qog'ozbozlikdan voz kechish emas, balki "Soliqchi — ko'makchi" tamoyili asosida davlat va tadbirkor o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qilgan. Xususan bugungi kunda soliq nazorati inson omilisiz ishlaydigan yagona avtomatlashtirilgan platformaga birlashtirilgan bo'lib, tizimning asosi — tovar ishlab chiqarilishidan to iste'molchiga yetib borguniga qadar bo'lgan zanjirni uzluksiz kuzatish imkonini beruvchi

texnologiyalar hisoblanadi. O'z navbatida, barcha tadbirkorlik subyektlari uchun elektron hisobvaraqa-faktura (EHF) va onlayn nazorat-kassa mashinalari (onlayn-NKM) majburiy etib belgilandi. Bu yechimlar savdo aylanmasining shaffofligini ta'minlasa, "E-ijara" va "E-aktiv" tizimlari ko'chmas mulk hamda tovar zaxiralarini aniq hisobga olishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar bazasi negizida sun'iy intellekt elementlariga ega bo'lgan "Risk-analiz" (tahlika-tahlil) dasturi ishga tushirildi va mazkur dastur soliq to'lovchilarni inson aralashuvisiz baholab, ularni "yashil" (past xavf), "sariq" (o'rta xavf) va "qizil" (yuqori xavf) yo'laklarga ajratish imkonini berdi va an'anaviy "yoppasiga tekshirish" amaliyotiga butunlay chek qo'ydi. Ushbu sanab o'tilgan raqamli yechimlar soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni sezilarli darajada soddalashtirgan, shuningdek, soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarida inson omilining salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam bermoqda.

Raqamlashtirishning ijobiy natijalari

O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish jarayoni qisqa vaqt ichida davlat, biznes va jamiyat uchun sezilarli ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi eng avvalo "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi kurashda o'z isbotini topdi. Onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron hisobvaraqa-fakturalar va tovarlarni markirovkalash tizimlarining joriy etilishi natijasida savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi ko'plab aylanmalar "soya"dan chiqdi. Bu esa soliq stavkalarini oshirmasdan turib, soliq bazasini kengaytirish va davlat byudjetiga tushumlarning barqaror o'sishini ta'minladi. Iqtisodiy jarayonlarning raqamli izi paydo bo'lishi davlatga real vaqt rejimida aniq tahlillar

o'tkazish va asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda. Tadbirkorlik subyektlari uchun esa bu islohotlar byurokratiyadan xalos bo'lish va vaqtni tejash imkonini yaratdi. Eng katta ijobiy o'zgarishlardan biri — hisobotlarni avtomatik shakllantirish (pre-filling) tizimidir. Endilikda tadbirkor murakkab hisob-kitoblar ichida yo'qolib qolmaydi, soliq organlari bazasidagi ma'lumotlar asosida tayyorlab berilgan hisobotni tasdiqlashning o'zi kifoya. Shuningdek, insofli soliq to'lovchilar, xususan eksportchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) qaytarish muddati keskin qisqardi. Bu biznesning aylanma mablag'larini saqlab qolish va faoliyatini uzluksiz rivojlantirishga katta turtki bo'ldi. Qolaversa, raqamli nazorat soliqdan qochib yuruvchi “uddaburonlar” va qonuniy ishlovchi tadbirkorlar o'rtasida teng raqobat muhitini yaratdi. Bundan tashqari raqamlashtirishning ijtimoiy va ma'muriy ahamiyati korrupsion omillarni bartaraf etishda namoyon bo'lib, inson omiliga asoslangan tekshiruvlardan voz kechilib, sun'iy intellekt elementlariga ega bo'lgan “Risk-analiz” tizimiga o'tilishi subyektiv yondashuvlarga chek qo'ydi. Endilikda tekshiruvlar inspektorning xohishi bilan emas, balki xavf darajasini aniqlovchi algoritm asosida belgilanadi. Shu bilan birga, “Soliq” mobil ilovasi va keshbek tizimi orqali oddiy fuqarolarning jamoatchilik nazoratiga jalb etilishi jamiyatda soliq madaniyatining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi asosiy muammolar

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar qisqa davr ichida ulkan natijalarni bergan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu murakkab jarayonning to'liq va silliq kechishiga

to'sqinlik qilayotgan jiddiy omillar saqlanib qolmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonidagi asosiy muammolar texnik infratuzilma, inson kapitali va institutsional nomutanosibliklar kesishmasida yuzaga kelmoqda.

Texnik infratuzilma bilan bog'liq muammolar. Raqamlashtirishning poydevori – barqaror internet va kuchli server quvvatlaridir. Garchi O'zbekistonda internet qamrovi kengayib borayotgan bo'lsa-da, hududlar o'rtasidagi “raqamli tafovut” hamon sezilarli. Tizim foydalanuvchilari soni va qayta ishlanayotgan ma'lumotlar hajmining (Big Data) keskin oshishi Soliq qo'mitasining markaziy serverlariga haddan tashqari yuklamani yuzaga keltirmoqda. Xususan, hisobot topshirishning cho'qqi davrlarida (har oyning 15–20-sanalari) “E-soliq” va boshqa platformalarda texnik uzilishlar yoki tizimning “qotib qolishi” kuzatilmoqda. Bu holat tadbirkorlarning soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishiga jismoniy to'sqinlik qilib, ularning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, chekka hududlarda elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar onlayn-NKM va virtual kassalar faoliyatini to'xtatib qo'yishi, savdo jarayonini qonuniy rasmiylashtirishda muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Raqamli savodxonlik darajasi. Bundan tashqari, texnologiyaning joriy etilishi uning foydalanuvchilari malakasidan ilgarilab ketdi. Kichik biznes subyektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarning aksariyati, ayniqsa yoshi katta avlod vakillari murakkab interfeysga ega bo'lgan “E-aktiv” (ombor hisobi) yoki elektron hisobvara-q-faktura tizimlarida ishlashda jiddiy qiyinchilikka duch kelishmoqda. Hududlarda raqamli soliq platformalarini chuqur tushunadigan malakali buxgalterlar yetishmasligi oqibatida hisobotlarda texnik xatoliklar ko'paymoqda. Afsuski, avtomatlashgan tizim bu texnik xatolarni ko'pincha

“soliqdan qochishga urinish” deb baholab, tadbirkorga asossiz talabnomalar yuborish holatlarini keltirib chiqarmoqda.

Normativ-huquqiy va xavfsizlik muammolari. Qonunchilik bazasining o‘ta tez o‘zgaruvchanligi ham dasturiy ta‘minot ishlab chiquvchilar uchun, ham soliq to‘lovchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmoqda. Soliq kodeksi va qonunosti hujjatlariga kiritilayotgan tezkor o‘zgartirishlarni axborot tizimlariga integratsiya qilishda kechikishlar mavjud. Bu esa “qonun kuchga kirgan, ammo dasturda imkoniyat yo‘q” qabilidagi huquqiy va texnik kolliziyalarga sabab bo‘ladi. Shuningdek, axborot xavfsizligi masalasi ham dolzarb bo‘lib turibdi. Soliq to‘lovchilarning “E-imzo” kalitlariga e‘tiborsizligi va kiberxavfsizlik madaniyatining pastligi shaxsiy ma‘lumotlarning sizib chiqishiga yoki firibgarlik holatlariga yo‘l ochmoqda. Davlat serverlarida to‘plangan ulkan tijorat sirlarining xavfsizligini ta‘minlash doimiy kiberhujumlar sharoitida jiddiy resurslarni talab etadi.

Tashkiliy va institutsional to‘siqlar. Shuningdek, idoralararo integratsiya jarayonidagi nomutanosibliklar tizim samaradorligini pasaytirmoqda. Soliq, bojxona, kadastr va bank tizimlari o‘rtasidagi ma‘lumotlar bazasida farqlar (masalan, ko‘chmas mulk maydoni yoki kadastr raqamlaridagi xatolar) mavjudligi soliq bazasini avtomatik shakllantirishda xatoliklarga olib kelmoqda. Qolaversa, yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo‘lgan sohalarda raqamli shaffoflikka nisbatan ichki va tashkiliy “qarshilik ko‘rsatish” (resistance to change) tendensiyasi saqlanib qolmoqda.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish jarayoni mamlakat fiskal siyosatining eng strategik va muvaffaqiyatli islohotlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. An'anaviy ma'muriy bosim vositalaridan voz kechilib, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan "Soliqchi — ko'makchi" tamoyilining joriy etilishi soliq to'lovchilar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, elektron hisobvara-q-fakturalar, onlayn-NKM va "Risk-analiz" tizimlarining integratsiyasi yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda byudjet tushumlarini barqarorlashtirishda yuqori samaradorlik kasb etmoqda.

Biroq, raqamli transformatsiyaning bugungi bosqichida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolayotgani tadqiqot davomida o'z tasdig'ini topdi. Xususan, ma'lumotlar hajmining keskin ortishi sharoitida texnik infratuzilma va server quvvatlarining yetishmasligi, soliq to'lovchilar hamda soha xodimlarining raqamli savodxonlik darajasi talabga javob bermasligi, shuningdek, normativ-huquqiy bazaning haddan tashqari tez o'zgaruvchanligi tizim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik tahdidlari va idoralararo ma'lumotlar bazasidagi nomutanosibliklar raqamli xizmatlarning to'liq salohiyatda ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish uchun ustuvor vazifa sifatida soliq organlarining ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarini modernizatsiya qilish, tadbirkorlar uchun raqamli ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan bepul ta'lim platformalarini yaratish hamda qonunchilikdagi o'zgarishlarni dasturiy ta'minot bilan sinxronlashtirish mexanizmini takomillashtirish lozim. Mazkur chora-tadbirlarning amalga

oshirilishi nafaqat fiskal intizomni mustahkamlashga, balki O'zbekistonda shaffof, adolatli va investitsiyalar uchun jozibador raqamli biznes muhitini yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahriri).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentabrdagi "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5252-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi "Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 489-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 1-son Qarori.

Xalqaro hisobotlar va adabiyotlar:

1. OECD (2020). Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration. Paris: OECD Publishing.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
3. Vahobov A., Jo‘rayev A. “Soliqlar va soliqqa tortish”. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining rasmiy sayti – www.soliq.uz va ochiq ma’lumotlar portali.